

OLIV TA'LIMDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Sobirov Javoxir Xayrulla o'g'li

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Oliy ta'lim tizimini yanada islox qilish orqali ilmi va o'z kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirib chiqarish mumkin bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda ushbu maqolada oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy metodlarda foydalanish to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek maqola muallifining ushbu mavzuga oid bo'lgan xulosa va takliflari ham bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, oliy ta'lim, metod, kadr, mutaxassis, kredit-modul, rivojlanish,*

Аннотация: *Путем дальнейшего реформирования системы высшего образования можно будет выпускать знающих и зрелых специалистов своей профессии. Учитывая это, в данной статье представлена информация об использовании современных методов, направленных на повышение качества образования в высшей школе. Также представлены выводы и предложения автора статьи, касающиеся данной темы.*

Ключевые слова: *инновации, высшее образование, метод, кадры, специалист, кредитный модуль, развитие,*

Abstract: *By further reforming the higher education system, it will be possible to produce knowledgeable and mature specialists of their profession. Taking this into account, this article provides information on the use of modern methods aimed at improving the quality of education in higher education. Also, the conclusions and suggestions of the author of the article related to this topic are presented.*

Key words: *Innovation, higher education, method, personnel, specialist, credit module, development*

KIRISH

Ta'lim sifati bugungi kundagi eng dolzab masala bo'lib turgani uchun keyingi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-sentyabrdagi qaroriga muvofiq Xalq ta'limi vazirligining boshqaruv tizimi takomillashtirildi, asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi. Yaqinda vazirlik rahbariyatida o'zgarishlar amalga oshirilib, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ko'plab vazifalar qo'yildi. Yig'ilishda ushbu ko'rsatmalar asosida ishlab chiqilgan xalq ta'limi tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimoti o'tkazildi. Prezident pedagoglarning oylik maoshini,

jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha topshiriqlar berdi. Turli nazorat organlari tomonidan o'qituvchilar faoliyatini tekshirishlarni cheklash, pedagoglarni obodonlashtirish ishlarida, majlislarda qatnashish, obuna va shu kabi kasb faoliyatiga tegishli bo'lmagan ishlarga jalb qilmaslik kerakligi ta'kidlandi. O'qituvchilarning haq-huquqlarini himoyalash uchun maxsus huquqiy xizmat tashkil etish vazifasi qo'yildi.⁵

ASOSIY QISM

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri mazkur sohani va olimlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim soha ekanini mamlakatimiz rahbarining bu borada olib borayotgan siyosatida sohaga oid qaror va farmonlarda aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 1-mayda “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori imzolangan bo'lib, qarorda Respublika transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirish, o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, tarmoq ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ilmiy salohiyatini yanada oshirish masalalari keng yoritilib berildi.⁶

Oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish o'rtasida uzilishlar mavjud, integratsiya ta'minlanmagan. Ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta'limda kadrlar tayyorlash jarayoniga zarur darajada jalb etilmagan, ularda ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqmasdan amalga oshirilmoqda. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning tizimli tayyorlanmasligi oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda.

Xorijiy ekspertlar guruhi tomonidan taklif etilgan tavsiyalarni inobatga olgan holda oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta'lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish ishlarini olib borish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

⁵ <https://xs.uz/uz/post>

⁶ M.Qurbonov O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati va ma'naviy qiyofasi. O'quv-uslubiy qo'llanma.2021 yil

Oliy ta'lim muassasalarida tizimli ravishda ta'lim sifati va unga ta'sir etgan omillarni baholash: «Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirish kafili bo'lishi zarur. Ular yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirishi lozim»ligi borasidaga o'ta muhim vazifalar bilan belgilangan [3]. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim-tarbiya sifatining holati, uning monitoringi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda xolis baholansa, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etgan omillar o'z vaqtida korreksiyalanib, istiqbolga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ta'lim sifatining kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligi ta'minlanadi. Germaniyada ta'lim sifati, xususan, oliy ta'lim sifatini baholashning o'ziga xos tizimi mavjud. Hozirgi kunda Germaniyada sifatni baholash bo'yicha bir necha agentliklar faoliyat yuritib, ulardan ba'zilari tor doirada texnika, tibbiyot, biznes sohalarigagina yo'naltirilgan bo'lsa, qolgan agentliklar boshqa barcha yo'nalishlar bo'yicha ta'lim dasturlarini baholash, akkreditatsiyadan o'tkazishga ixticoslashtirilgan. Mazkur davlatda akkreditatsiyalash jarayoni oliy ta'lim muassasining talabiga binoan amalga oshiriladi va yakuniy xulosa tegishli davlat organlari tomonidan shakllantiriladi. Germaniyada ta'lim sifatini baholash tizimining o'ziga xosligi unda ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimining mavjudligida bo'lib, ta'lim sifatini baholashda ish beruvchilarni ekspert salohiyatidan to'laqonli foydalanilishiga e'tiborqaratilgan.

MUHOKAMA VA TAKLIFLAR

Shuni aytish mumkinki oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish orqali nafaqat OTMLlarda balki butun ta'lim sistemasida yangi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Sababi deyarli barcha sohalar uchun mutaxassislarni oliy o'quv yurtlari yetishtirib chiqarmoqda. Shunday ekan oliy ta'lim sohasini doimo rivojlantirib borishimiz kerak bo'ladi. Bu masalada oliy ta'lim sohasi yaxshi rivojlangan jahonning top 100 talik universitetlarini ta'lim tizimini o'rganib yurtimizdagi OTMLlarda amalga tadbiriq qilishimiz kerak bo'ladi. Masalan, hozir qo'llab kelayotgan kredit-modul tizimini aytishimiz mumkin. Lekin shunday bo'lsa ham kredit modul tizimi baribir unchalik foyda bermayapti. Sababi, talabalar faqat davomatdan o'tish uchungiga kelishmoqdalar va o'sha o'sha diplom olish uchun o'qish an'anasi davom etmoqda. Ilm olish uchun esa qiziqishi borlar juda kamligicha qolmoqda. Taklif o'rnida shuni aytishim mumkinki OTMLlarda har bir yo'nalish bo'yicha eng avvalo spes maxsus gruppalarni tashkil etib ularga shu mutaxassislik bo'yicha chuqur bilim berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek talabga qarab taklif deganlaridek otmlarga talabalar qabul qilishni mavjud ish o'rinlariga qarab qilgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir taklif sifatida oliy ta'limga boshqichma-bosqich amaliyotni tadbiriq etishni tadbiriq rivojlantirishimiz kerak. Shundagina bilim olish darajasi ortadi. Amaliyot orqali o'rgatish nazariyga qaraganda juda foydali ekanligi barchamizga sir emas. Shunday ekan otmlarni moddiy texnik bazasini mustahkamlashimiz ham kerak bo'ladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda barcha

sohalarda faoliyat olib borayotgan kadrlarni bilimli, o'z mutaxassisliklari bo'yicha yetuk kadr bo'lib yetishishlari muhim vazifa sifatida qaralib kelinmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalariga katta mas'uliyat yuklaydi. Shunday ekan oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'z mutaxassisliklari bo'yicha bilimli, yetuk kadr bo'lishlari uchun bilim berish usullarini zamon talabi darajasida olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Qurbonov O'zbekiston yoshlarining intellektual salohiyati va ma'naviy qiyofasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. 2021 yil
2. Samaridin Barakayevich Qorayev, Marjan Smatillayevna Janbayeva. (2021). Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Academic research in educational sciences
3. Mayorov A.N. Monitoring v obrazovani. – M.: Intellekt-Sentr, 2005 – 424 s.
4. www.lex.uz internet sayti
5. www.kun.uz internet sayti